

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY  
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD. 03/30.12.2019.Fil 14.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY KOMMUNIKATSIYALAR  
UNIVERSITETI**

**UMIRZAKOVA NILUFAR TALIBJANOVNA**

**TELEVIZION JURNALISTIKADA OBRAZ YARATISH:  
MOHIYATI, XUSUSIYATLARI VA MAHORAT MASALALARI**

**10.00.09 – Jurnalistika (filologiya fanlari)**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**O‘DK:050/070:654.19(09)(575.1)**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy(PhD)on philological  
sciences**

**Umirzakova Nilufar Talibjanovna**

Televizion jurnalistikada obraz yaratish: mohiyati, xususiyatlari va mahorat  
masalalari ----- 3

**Умирзакова Нилуфар Талибжановна**

Создание образа в телевизионной журналистике: сущность, особенности и  
вопросы мастерства ----- 25

**Umirzakova Nilufar Talibjanovna**

Creation of an image in TV journalism: essence, peculiarities and issues  
of mastery ----- 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works -----54

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY  
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD. 03/30.12.2019.Fil 14.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY KOMMUNIKATSIYALAR  
UNIVERSITETI**

**UMIRZAKOVA NILUFAR TALIBJANOVNA**

**TELEVIZION JURNALISTIKADA OBRAZ YARATISH:  
MOHIYATI, XUSUSIYATLARI VA MAHORAT MASALALARI**

**10.00.09 – Jurnalistika (filologiya fanlari)**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3647raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasiga ([www.uzjoku.uz](http://www.uzjoku.uz)) va “Ziyo-net” Axborot-ta’lim portaliga ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ismoilova Klimentina Fuzailovna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Rasmiy taqrizchilar:**

**Qudratxo‘ja Sherzodxon Tojiddinxon o‘g‘li**  
siyosiy fanlar nomzodi, professor

**Olimov Farruxbek Sultonmurodovich**  
filologiya fanlari doktori (DSc)

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD. 03/30.12.2019.fil 14.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 -yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Markaz-5, 88-uy. Tel: (871) 2070906; e-mail: [www.uzjoku.uz](http://www.uzjoku.uz) [info@jmcu.uz](mailto:info@jmcu.uz)).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan).

(Manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Markaz-5, 88-uy. Tel: 871 2070906; e-mail: [www.uzjoku.uz](http://www.uzjoku.uz) [info@jmcu.uz](mailto:info@jmcu.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 -yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2024 -yil «\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**F.A.Mo‘minov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,  
f.f.d., professor

**A.I.Safarov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, f.f.f.d. (PhD), dotsent

**N.F.Muratova**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, f.f.d., dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda zamonaviy televideniye – axboriy jamiyat rivojlanishi sharoitida ijtimoiylashuvning asosiy institutlaridan biri hisoblanmoqda. Sotsiologik tadqiqotlar dalolat beradiki: «Aynan televideniye – aholining aksariyat qismini shaxsiy axborot makonida katta hajmdagi vaqtini egallaydi»<sup>1</sup>. Jamiyat hayotidagi bunday muhim rol jamoat va davlat manfaatlarini aks ettirishda dolzarb bo‘lib hisoblanmoqda.

Jahonda umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlarining organik simbioziga asoslangan zamonaviy jamiyatning estetik ehtiyojlari televideniya obrazlilikka bo‘lgan ilmiy qarashlar tizimini kuchaytirish muhim vazifa ekanligi ta'kidlanmoqda. Dunyo miqyosidagi televideniye tadqiqotlari metodologiyasida hozirgacha televizion obrazlarni tahlil qilishning aniq mezonlari, ularning xususiyatlarini ko‘rib chiqishga bo‘lgan ko‘plab urinishlar televizion obraz yaratish mexanizmida asosiy rol o‘ynaydigan ommaviy axborot vositasi sifatidagi televideniyaning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olmaydi. Bularning barchasi televizion obrazlarni yaratish va aks ettirishning barcha jihatlarini to‘liq o‘rganish imkonini beradigan uslubiy apparatga bo‘lgan ehtiyojni dolzarblashtiradi.

O‘zbekiston televideniya obrazlar shakllanishi sobiq sovet ittifoqi davrida boshlanib, ularning modifikatsiya va transformatsiyasi mustaqillik yillariga to‘g‘ri keldi. Mustaqillikdan keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohatlar, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy jarayonlarni demokratlashtirish va modernizatsiya qilish yo‘lida olib borilgan jarayonlar zangori ekranda yangi qahramon va obrazlar zarurligini keltirib chiqardi. Qonun va adolat tantanasi uchun kurashadigan insonlar bugungi kunning qahramonlari bo‘lishi kerak. Biz aytamiz, qahramon yo‘q, – deb. Bor qahramonlar! Mana shularni biz qahramon qilishimiz kerak»<sup>2</sup>. Bularning barchasi jurnalistlarning o‘z loyihalari uchun qahramon tanlashdagi ma'suliyatini oshiradi, zamondoshlar orasidan faoliyati va yashash tarzi bilan ajralib turadigan qiziqarli shaxslarni izlab, televizion obraz darajasiga olib chiqish vazifasini yuklaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 -yil 24 -yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2017 -yil 7 -fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida», 2019 -yil 2 -fevraldagi PQ-5653-son «Axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2022 -yil 28 -iyundagi PQ-60-sonli «2022—2026 -yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida»gi qarorlari va boshqa shu sohaga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

---

<sup>1</sup>Лесная Л.В., Соловьева С.С. Информационное поле и менталитет горожанина как предметная область социологического исследования// Глобализации и социальные изменения: материалы научной конференции 2006. <http://lib.socio.msu.ru/library>

<sup>2</sup>Мирзиёев Ш.М. чиқиши//«O‘zbekiston 24» телеканали эфери. Янгиликлар. 07.12.2019. 19:55

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining: I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbekistonda televizion jurnalistikasi bo‘yicha ilq tadqiqotlar A. Karimov<sup>3</sup> tomonidan o‘tkazilgan bo‘lsa, keyinchalik O‘zbekiston televideniya shakllanishi, rivojlanish bosqichlarini A. Yesin, M. Fayazov<sup>4</sup> ilmiy tadqiq etgan.

Telejurnalistikaning metodologik asoslarini M. Asadullaev, M. Mahamedov, O. O‘taev, A. Xodjayev va Sh. Hayitov o‘z tadqiqotlarida bayon etgan<sup>5</sup>. Telejurnalistikaning ayrim funksiyalari, formatlari, janrlari va shakllari bo‘yicha Sh. Ibragimov, P. Allamberganova, I. Rahmatullayeva, E. Usmonov, A. Karimov, Yu. Ortiqova<sup>6</sup> ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borgan. Televideniya boshlovchilik imiji, uning mahorat masalalari va mualliflik dasturlarda jurnalistning rolini Yu. Zohidova, K. Ermamatova tadqiq etgan<sup>7</sup>. Ommaviy axborot vositalari, xususan, televideniya so‘zning o‘rni, media tili, til me‘yorlariga D. Teshabayeva, S. Shomaqsudova, M. Israil<sup>8</sup> ilmiy ishlari bag‘ishlangan.

Mavzuni tadqiq etishda, milliy telejurnalistika taraqqiyotining zamonaviy tendensiyalari nuqtai nazaridan o‘rganishga, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi homiyligida 2019 -yilda nashr etilgan «Jurnalistika» (VI jild. «Audiovizual jurnalistika») ilmiy-ommabop nashri, shuningdek, «O‘zbekiston

---

<sup>3</sup>Каримов А. Становление и развитие телевидения Узбекистана 1957-1967 гг. Автореф. дисс. канд. ист.наук. Т.: 1971.

<sup>4</sup>Есин А. Радио и телевидение Узбекистана: рост, достижения, проблемы. – Т.: «Узбекистан» 1975; Фаязов М. Средства массовой информации и нравственное воспитание. Т.: Узбекистан, 1981.

<sup>5</sup>Асадуллаев М. Телевидениенинг назарий ва амалий асослари. – Т.: Мумтозсўз, 2021; Махамедов М. Умр лаҳзалари. Режиссёрнинг ҳаёт кечинмалари. – Т.: Адабиёт учқунлари. 2018; Ўтаев Ў. Телевидение – табаррук маскан. – Т.: «Ўзбекистон», 2010; Хаджаев А., Ҳайитов Ш. Радио ва телевидение: Ўқув-услубий қўлланма.– Т.: ИЖОД-ПРЕСС, 2022.

<sup>6</sup>Ибрагимов Ш. Производственно-экономическая проблематика на телевидении Узбекистана 1986-1991 гг. Автореф. дис. канд. фил. наук. Т.: 1993; Алламберганова П. Тележурналистика жанрлари. – Т.: Янги аср авлоди, 2014; Раҳматуллаева И. Телевидение ва ёшлар: кеча ва бугун. – Т.: Янги аср авлоди, 2005; Усмонов Э. Ҳайратларга тўла дунё.–Т.: Минҳож, 2005; Каримов А.А. Рекреативлик – замонавий тележурналистиканинг глобал қонунияти сифатида. Монография. Т.: АДАБИЁТ, 2021; Ортиқова Ю. Интерактив журналистика. – Т.: MUMTOZSOZ, 2011.

<sup>7</sup>Зоҳидова Ю.Қ. Телевидение ва шахс: телеянгиларда бошловчининг ўрни (ижтимоий вазият, журналист позицияси ва маҳорат масалалари).–Т., 2021; Эрматов К.Р. Телевидениеда муаллифлик кўрсатувлари: тузилиши, типологияси ва маҳорат масалалари. Филол. фан. буйича фалсафа докт. Дисс. автореф. Т. 2022.

<sup>8</sup>Тешабаева Д.М. Медиалингвистика ва таҳрир. – Т.: «O‘zbekiston» НМИУ, 2019; Шомаксудова С. Матндаги нутқий бирликлар: ўқув қўлланма. – Т.: Университет, 2021; Шомаксудова С., Исраил М. ОАВда ёзма матн. Нутқ ва мунозара.– Т.: Иқтисодий-молия, 2018.

миллий телерадиокomпаниyasi: zamon bilan hamqadam» to‘plami katta yordam berdi<sup>9</sup>.

MDH davlatlaridagi tadqiqotlarda televizion obrazning ayrim jihatlarini bo‘yicha tadqiqotlar K.Karimova, E.Arapova, R.Raxmatullin, E. Semenova, D.Xamzina, M.Chapayeva, A.Ebru, L.Xochunskaya, A.Xlizova, Yu. Fyodorov va boshqalar ilmiy izlanishlarida o‘z ifodasini topgan<sup>10</sup>.

AQSH, London va Frantsiya davlatlarida A.L. Press, A.D. Lotts D.E. Dennis, Dj. Merill va J. Sadul kabi xorijiy mutaxassis va tadqiqotchilar teleekranda qahramon yaratish texnologiyalari bo‘yicha bahsga kirishganlar<sup>11</sup>.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti «Mass-media nazariyalari, tarixi va istiqbolining dolzarb muammolari» (2018-2023) amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** milliy televideniye tizimida (davlat va xususiy telekanallar) namoyish etilayotgan teleloyihalarda milliy strategik maqsadlar va xorijiy ilg‘or tajriba asosida zamondosh qahramon obrazini yaratish usul va texnologiyalarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

televizion ekran obrazining xususiyatlarini aniqlash va «obraz» tushunchasi ta’rifini takomillashtirish;

telejurnalist faoliyatida qahramon izlash, topish va saralash mezonlarni ishlab chiqish;

---

<sup>9</sup>Журналистика. Том VI.Аудиовизуал журналистика. (Муаллифлар – Каримов А., Қосимова Н., Исмаилова К.Ф., Хамдамов Ю. ва бошқ.). Т.: О‘zbekiston НМИУ, 2019;

Ўзбекистон миллий телерадиокomпаниyasi: замон билан ҳамқadam/ А.Ходжаев муҳаррирлигида. Т.: Dizayn-Print, 2022

<sup>10</sup>Каримова К.Р. Понятия «образ» и «имидж» в практике СМИ и научных исследованиях//Знак: проблемное поле медиаобразования. 2019. №2. С.137-142; Арапова Э.И. Спецификателевизионного образа. Постановка проблемы // Вестник ВГУ. Серия: Филология. Журналистика. 2012. – №1.– С. 142-145; Рахматуллин Р. Ю., Семенова Э. Р., Хамзина Д. З. Понятие образа // Исторические, философские, политические и юридические науки, культурология и искусствоведение. Вопросы теории и практики. Тамбов, 2012. – № 12 (26). – С.167-170; Чапаева М. В. Проектирование имиджа: учебное пособие. Екатеринбург: Изд-во Рос. гос. проф.-пед. ун-та, 2013; Олешко В. Ф. «Последний герой» - кто он? // Средства массовой информации в современном мире. Материалы межвуз. науч.-практ. конф. / Под ред. В. И. Конькова. СПб., 2003; Хочунская Л.В. Медиаобраз как диалог ценностей: монография. М. : РУДН, 2011; Хлызова А.А. Особенности методики анализа телевизионных образов//Автореф.дисс.канд. филол. наук.Екатеринбург, 2013; Фёдоров Ю.С. Техники и приёмы раскрытия личностных качеств героя при создании интервью-портрета.М.: Медиасреда, 2017.

<sup>11</sup>Press A.L. Women Watching Television: Gender, Glass and Generation in the American Television Experience/ A.L. Press. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1991. – 246; Дэннис Э., Мэррилл Д. Беседы о масс-медиа. – М.: Рос.-амер.информ. пресс-центр; Вагриус, 1997; Матгелар Т. Теории интернационализации аудиовизуальных СМИ: Сокр.науч.перевод с фр.Кирия И.В.// Медиаальманах.- 2005.

teleeifirda qahramon obrazini yaratishda muallifning maqsadi va auditoriya ehtiyojlari o'rtasidagi mutanosiblik muammosini o'rganish;

ko'rsatuvda qahramon obrazi yaratishning ifodali vositalari tizimi asosida teledasturlarda portret personaj xarakterini yaratish texnologiyalarni tahlil qilish; televizion efirda qahramon personifikatsiyasining til usullarini aniqlash.

**Tadqiqotning obekti** sifatida «O'zbekiston», «O'zbekiston 24», «Yoshlar», «Mahalla», «Mening Yurtim», «Milliy TV», «Zo'r TV», Sevimli TV milliy telekanallar hamda «Россия 24», «Первый», НТВ, Ukrainaning «Pyatnitsa» kabi xorijiy telekanallar ko'rsatuvlardagi telepersonajlarning turli xarakterdagi obrazlari tanlandi.

**Tadqiqotning predmetini** teleloyihalarda personajlarning televizion obrazini yaratish va shakllantirish texnologiyalari hamda mahorat mezonlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda televideniyaedagi qahramon portretini yaratishda aniq sotsiologik usul (ekspert va standartlashtirilgan intervyu)lardan, shuningdek, tavsiflash, tasniflash, kontent-tahlil, analiz-sintez, kuzatuv, statistik va qiyosiy usullardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

milliy televideniya tizimida qahramonlar va personajlar obrazlarining to'rt bosqichda - sobiq sovet ittifoqi davrida shakllanishi (1956 -1985 yy.), Qayta qurish sharoitida evolyutsiyasi (1985-1991 yy.), mustaqillik davrida modifikatsiyalanishi (1991-2016 yy.), Mustaqil O'zbekistonning taraqqiyot strategiyalari asosida tubdan sifat o'zgarishi (2017 yildan boshlab) bosqichlari asoslangan;

tarixiy shaxslarning faoliyatini tarixiy xolislikka ko'ra ob'ektiv aks ettirish nuqtai nazaridan zamonaviy teleloyihalarda teleocherklar sirasiga «voqeaband ocherk» va «tarixiy portret-ocherk» janr modellarini kiritishning zarurligi isbotlangan;

«zamonaviy qahramon» teleobrazi kontekstida jurnalistlarning tasavvuri va auditoriya kutganlari o'rtasidagi nomuvofiqlik darajasi baholangan holda ijodkorlar paradoks holatlarga tayyor turishi va dispozitsiya turlaridan samarali foydalanish zarurati dalillangan;

postmodernizm va ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida televideniyaeda nutq plyuralizmi tendentsiyasi baholangan holda spontan va buzilgan nutq kabilarning tarqalib borayotgani dalillanib, ekran tilini muvofiqlashtirishda verbal, paralingvistik va ekstralingvistik jihatlarga oid eskpressivlik, nutq sofligi va fikrni aniq ifodalash kabi mezonlar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

milliy telejurnalistikada obrazlarni shakllantirish va yaratish texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslari, tarixiy shakllanish bosqichlari tahlil etilib, yangi uslub va yondashuvlar dalillangan;

televizion obrazlarni yaratish va shakllantirish texnologiyalari bo'yicha mahalliy telekanallar ko'rsatuvlari sifatini va jurnalistlar malakasini oshirishga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan;

oliy ta'lim muassasalari jurnalistika fakulteti talabalariga pablik rileyshnz, seminarlar, master-klass, ijodiy ustaxonalar tashkil etish mediologiyalari tavsiya etilgan;

televizion obrazlarni auditoriyaga taqdim etishda jurnalistning notiqlik mahorati va kasbiy odob-ahloqi mezonlar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** televizion jurnalistikada ekran obrazini shakllantirishda empirik usullar majmuidan foydalanilganligi, nazariy ma'lumotlarning ilmiy manbalar bilan asoslanganligi, tanlab olingan milliy va xorijiy amaliyoti namunalarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, chiqarilgan xulosa hamda olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi ishonchliligini ta'minlaydi.

**Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati televizion jurnalistikaga oid nazariy qarashlar umumlashtirilib, o'rganilayotgan muammo bo'yicha yangi nazariy va empirik ma'lumotlar bayon etilgani, ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgani, milliy jurnalistikada dolzarb bo'lgan televizion obraz yaratish nazariyasi bo'yicha mavjud kategorial apparat boyitilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, undagi asosiy taklif va xulosalar, nazariy umumlashmalaridan telejurnalistika tarixi, nazariyasi, amaliyoti yo'nalishidagi ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda, televizion jurnalist kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimida, o'quv va o'quv-uslubiy adabiyotlar tayyorlashda, televizion obraz yaratishga oid maxsus kurslar ishlab chiqishda, ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirishda amaliy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Televizion jurnalistikada obraz yaratish: mohiyati, xususiyatlari va mahorat masalalari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

milliy televideniye tizimida qahramonlar va personajlar obrazlarining to'rt bosqichda - sobiq sovet ittifoqi davrida shakllanishi (1956 -1985 yy.), Qayta qurish sharoitida evolyutsiyasi (1985-1991 yy.), mustaqillik davrida modifikatsiyalanishi (1991-2016 yy.), Mustaqil O'zbekistonning taraqqiyot strategiyalari asosida tubdan sifat o'zgarishi (2017 yildan boshlab) bosqichlari bo'yicha xulosalardan «O'zbekiston tarixi» telekanalida «Taqdimot» ko'rsatuvida nazariy jihatdan hamda «Sog'inch» va «Eski albom» nomli turkum ko'rsatuvlar ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi «O'zbekiston» teleradiokanalining 2023-yil 29-avgustdagi 03-17-1307-son ma'lumotnomasi). Xulosalar milliy telejurnalistikada qahramon va personajlar obrazlarini yaratishga tizimli yondashish darajasini oshirish, mavjud imkoniyatlardan maqsadli foydalanish kabilarga muayyan darajada xizmat qilgan:

tarixiy shaxslarning faoliyatini tarixiy xolislikka ko'ra ob'ektiv aks ettirish nuqtai nazaridan zamonaviy teleloyihalarda teleocherklar sirasiga «voqeaband ocherk» va «tarixiy portret-ocherk» janr modellarini kiritishning zarurligi bo'yicha xulosalar «Toshkent» telekanalidagi «Fayzli uy», «Armonli dunyo» ko'rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi «Toshkent» telekanalining 2023 -yil 28 -avgustdagi 01-01-002 son ma'lumotnomasi). Natijada tarixiy shaxslarning faoliyatini yanada ob'ektiv aks ettirish va yoshlarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishga ko'ra teleauditoriyaning kengayishi va teleloyihalar reytingiga ijobiy ta'sir ko'rsatishga xizmat qilgan;

«zamonaviy qahramon» teleobrazi kontekstida jurnalistlarning tasavvuri va auditoriya kutganlari o'rtasidagi nomuvofiqlik darajasi baholangan holda ijodkorlar paradoks holatlarga tayyor turishi va dispozitsiya turlaridan samarali foydalanish zarurati bo'yicha takliflar «Mahalla» telekanalining «Minbar» va «Reportyor» ko'rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi «Mahalla» telekanalining 2023 -yil 23 -avgustdagi 01-15/302-son ma'lumotnomasi). Taklif «Mahalla» telekanali ko'rsatuvlar kontentini qayta ko'rib chiqilishiga ko'ra ssenariylar sifatini oshirishga hamda ko'rsatuvlarda auditoriya kutgani va ssenariylar muvofiqligi darajasini oshirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilgan;

postmodernizm va ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida televideniya nutq plyuralizmi tendentsiyasi baholangan holda spontan va buzilgan nutq kabilarning tarqalib borayotgani dalillanib, ekran tilini muvofiqlashtirishda verbal, paralingvistik va ekstralingvistik jihatlarga oid ekspressivlik, nutq sofligi va fikrni aniq ifodalash kabi mezonlari «Mening yurtim» telekanalidagi mavzuga oid turkum ko'rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda hamda O'zbekiston Jurnalistlari uyushmasi tomonidan mintaqaviy seminarlar uslubiy asoslarini ishlab chiqishda foydalanilgan («Mening yurtim» telekanalining 2023 -yil 29- avgustdagi 361/23-son, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasining 2023 -yil 17-avgustdagi 02-18/233-son ma'lumotnomalari). Natijada jurnalistlar ixtisoslashuviga ko'ra nutq madaniyatini oshirish, ssenariylarning nazariy-metodologik sifatini yuksaltirish hamda mutaxassislar kasbiy mahoratini «so'z» yukini aniq his etgan holda material tayyorlash darajasini sifat jihatdan boyitishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalari aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta respublika va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida ilmiy jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan. Shuningdek, O'zbekiston MTRKning «O'zbekiston», «Yoshlar», «Dunyo Bo'ylab», «Mahalla», «Toshkent», «Nurafshon», «Madaniyat va Ma'rifat» telekanallari va «MU5» xususiy telekanalida, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasida muallif hamkorligidagi keng qamrovli loyihalar doirasida respublika jurnalistlari uchun treninglar va mahorat darslari o'tib berildi.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya

komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 11 ta, jumladan, 6 ta respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Tadqiqotning umumiy hajmi 138 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Televizion jurnalistikada obraz: nazariy-metodologik asoslar**» deb nomlangan birinchi bobida jurnalistikada obraz va obrazlilikni har tomonlama o'rganish, televizion loyihalardagi ekran obrazi aks etishining xususiyatlari hamda televizion obrazlar evolutsiyasi tadqiq etildi.

Ushbu bobning birinchi fasli jurnalistikada obraz va obrazlilik tushunchalarini tahlil qilishga, badiiy va hujjatli obrazlar farqlarini o'rganishga bag'ishlandi. «Obraz» tushunchasini ma'lum bir ilm-fan doirasida ochib berish jamiyat uchun ham, tadqiqotchilar uchun ham munozarali bo'lib, uni dunyo voqealarini yoritishdagi yondashuv nuqtai nazaridan ko'rib chiqish talab etildi.

Ko'pincha ilmiy nashrlar, turli kanallarning xabarlarida qisman sinonim bo'lgan «obraz» va «imij» tushunchalarida semantik chalkashlik yoki ularning o'rnini almashtirish mavjud. Shunday ekan, tushunchalarning bunday qabul qilinishi ommaviy axborot vositalari auditoriyasi ongiga ham singadi.

«Obraz» va «imij» tushunchalarini asosiy jihatlarini aniqlab, quyidagilarni qayd etish lozim topdik:

<b>Obraz</b>	<b>Imij</b>
Intuitiv jihatdan shakllangan tasavvur	Maqsadli shakllangan tasavvur
Taassurot	O'ziga xos tashqi xususiyatlar yig'indisi
Auditoriya fikrini subektiv ifodalash	Mavjud bo'lgan (ko'pincha tashqi) fazilatlar
Beqaror, tartibsiz o'zgarishlarga qaram	Doimiy, barqaror sifatlar majmui

Yuqorida keltirilgan farqlardan kelib chiqqan holda, mazkur tadqiqotda televideniyaedagi hodisa yoki personajning portretini yaratishda «obraz» atamasini qo‘llash ko‘proq mos keladi deb, hisoblaymiz. Teleboshlovchi uchun «imij» atamasini qo‘llash maqsadga muvofiq.

«Ekran obrazi», «televizion obraz» va «badiiy obraz» atamalarining telejurnalistikada qo‘llanish kontekstidagi ta’riflarini ko‘rib chiqish jarayonida, ular turli ma’nolarni aks ettirishi bilan birga, ba’zan bir-birini inkor qilishi ham ayonlashdi.

Birinchi bobning ikkinchi faslida televizion jurnalistikada ekran obrazining aks etishi televideniyaning ommaviy axborot vositasi tabiatidan kelib chiqqan holda ko‘rib chiqildi. Ushbu faslda televizion obraz bilan kino obrazi hamda fotografik obrazlari o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqli jihatlari aniqlanib, televizion obraz xususiyatlari belgilandi.

Televideniyaedagi personajlar obrazlari yaratilishi ko‘p jihatdan ifoda vositalari tanlanishiga bog‘liq. Ifodali vositalarni tanlash televizion mahsulotning formati, janri va mavzusiga bog‘liq. Ulardan foydalanish ijodiy vazifa, muallifning g‘oyasi va boshqa omillar bilan belgilanadi. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, axborotni taqdim etishni ekspressiv shakllari va vositalaridan foydalanish telekanalning moddiy-texnik bazasiga ham bog‘liq. Bunga qo‘shimcha ravishda aytib o‘tishimiz kerak, televideniya tomonidan ma’lum bir personaj obrazini yaratilishi nafaqat zangori ekran xususiyatlari, balki televizion texnologiyalari, ishlab chiqarish sharoitlari, auditoriyaning doimiy ravishda o‘zgarib borayotgan ehtiyojlari bilan ham belgilanadi.

Ba’zi olimlar telejurnalistikadagi matn funksiyasi boshqa ommaviy axborot vositalaridan farq qilgani uchun ham, televideniya tomonidan qo‘llaniladigan asosiy shartli belgi sifatida so‘z va matn deb ta’kidlaydilar<sup>12</sup>. Ularning fikricha, video kontentning matn komponenti shaxsiylashtirilgan va ekranda taqdim etilgan obrazning xususiyatlari bilan ta’minlangan. Nazarimizda, televizion obraz uchun vizual tasvirlar muhim bo‘lib qoladi, bu esa tomoshabinlar ongiga, ularning his-tuyg‘ulariga ta’sir qilish imkonini beradi. Televideniyaning boshqa ommaviy axborot vositalaridan farq qiluvchi kuchli quroli ham shundaki, u ham matn, ham ovoz, ham tasvir bilan qahramonni taqdim etsa, turli rakursdagi kadrlar bilan auditoriyaning shu muhitga ham olib kira oladi va tomoshabin o‘zini jarayon ishtirokchisidek his qila oladi.

Birinchi bobning uchinchi fasli O‘zbekiston televideniyaesi dasturlaridagi televizion obrazlar evolutsiyasining tahliliga bag‘ishlangan.

Televizion obrazlar evolutsiyasi davriy jihatdan quyidagicha ko‘rib chiqildi:

---

<sup>12</sup>Анохин А.И. Специфические особенности и выразительные средства информационного телевидения. Вестник Чувашского университета.2012. – № 1. – С.276.

1. 1956 – 1985 - yillar (totalitar davri).
2. 1985 - 1991 - yillar (qayta qurish yillari).
3. 1991 – 2016 yillar (mustaqillik davrining boshlanishi).
4. 2017 - yildan hozirgacha (yangi strategik davr).

Televizion obrazlar evolutsiyasining birinchi bosqichidagi oynai jahonni salbiy jihatdan tahlil qilishga yo‘l qo‘ylmaganligi sababli, zangori ekran “yaxshi” yoki “yomon” degan bahslarga o‘rin qolmay, deyarli bironta ham tanqidiy dasturlar bo‘lmagan, shu jumladan, salbiy obrazdagi teleqahramon ham deyarli kuzatilmagan. Binobarin, o‘sha davrda dastur qahramonlari sifatida nafaqat ishchilar va kolxoz-sovxozlarning ilg‘or mehnatkashlari, balki «kommunizm quruvchilar kodeksi» prinsipiga amal qiluvchi partiya yetakchilari, targ‘ibotchilar, ziyolilar qatlami ham namoyon bo‘lgan.

1980-yillarda Ittifoq respublikalarida siyosiy o‘zgarishlar boshlanib, tabiiyki, televideniye ga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Teleefirda jamoatchilik faollari obrazlari auditoriyaga taqdim etilib, ular orqali millionlab tomoshabinlar mamlakatdagi o‘zgarishlarni chuqur his qila boshladilar. Jonli efirlar boshlanib, tomoshabinlar bilan interaktiv muloqotga kirishish dolzarb tus ola boshladi.

1991-yildan boshlab, mustaqillik tufayli madaniy meros va an’analarimizga munosabat ham tubdan o‘zgardi. Ilgari qoralanib kelgan shaxslar, tarixiy obidalar, kitoblar o‘zining haqiqiy egalariga qaytarib berildi. Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab kabi buyuk zotlar ijodini yangicha o‘rganishga, ularning obrazini yangicha yaratishga kirishildi. Televideniye dagi obrazlar modifikatsiyasi aynan mustaqillik yillarida boshlangan.

Bu davrni birinchi prezident bilan bog‘laymiz. Bu yillar zangori ekranda asosiy o‘rinni ziyolilar qatlami (adiblar, jamoa arboblari, san’at vakillari) egalladi.

2017-yildan hozirgacha. Mazkur davr Shavkat Mirziyoevning prezidentligi bilan boshlanadi. Davlat rahbari yangi strategik yo‘nalishlarining ta’sirida televizion obrazlarning transformatsiyasi amalga oshadi. Teleefirda siyosiy arboblari, turli jabhalardagi rahbarlar, deputatlar, shou-biznes yulduzlari, shuningdek, birinchi bor ommabop tarzda oddiy xalq vakillari (fermer, tadbirkorlar, uy bekalari) o‘z chiqishlari bilan qatnasha boshladi.

Butun dunyoni larzaga solgan Kovid–19 ning boshlanishi nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyoga, shu jumladan, jahon televideniyesiga ta’sirini o‘tkazadi va televizion obrazlar tizimidagi o‘zgarishlarga olib keladi. Yuqorida qayd etilgan ko‘rsatuv qahramonlariga tibbiyot soha vakillari, oddiy bemorlar, yosh sportchilar, blogerlar qo‘shiladi.

Shunday qilib, televizion obrazlar zamonaviy televideniye ning o‘zagini tashkil qiladi. Ular tufayli verbal va vizual to‘qnashuvlar yodda qolib, bu obrazlar asosidagi ovoz, so‘z, va tasvir sintezi keng auditoriya uchun ochiqlik va ishonchlilikni ta’minlashini aniqladik.

Dissertatsiyaning «**Teleekranda qahramon obrazini yaratish xususiyatlari**» deb nomlangan ikkinchi bobi teleloyihalar uchun janridan qat'iy nazar qahramon izlash va saralash bosqichlari, ko'rsatuv qahramoni obrazi haqida muallif tasavvurining shakllanishi va ijodiy guruhning maqsadi bilan auditoriya ehtiyojlari o'rtasidagi mutanosiblik tadqiq etilgan.

Ikkinchi bobning birinchi faslida turli mavzudagi dasturlar uchun personaj qaerda va qanday topiladi va saralanadi degan savollarga ilmiy va amaliy tadqiqotlar asosida yondashildi.

Qahramon – jurnalistikaning muhim subekti va televizion jarayonning uzviy ishtirokchisi<sup>13</sup>. To'g'ri tanlangan «qahramon», xuddi aniq qo'yilgan tashhisdek, ko'rsatuvning yarim muvaffaqiyatidir. Qolgan yarmi muallif tomonidan kontentga mos ravishda har tomonlama uning yoritilishidan iborat.

Telemahsulotda qahramon topish va saralashning aniq va yozilgan qonun-qoidalari, ko'rsatmalari yo'q. Bu har bir jurnalistning mahoratiga bog'liq. Ammo asosiy manbalarni belgilash mumkin: ijtimoiy tarmoqlar; forumlar; taniqli insonlarning telefon raqamlari; jurnalistning shaxsiy aloqalari va kuzatuvlari; tahririyat bazalari va h.k. Tadqiqot davomida qahramon topib saralashda televizion ijodiy guruh uchun prodyuser shtati muhimligi asoslandi.

Ikkinchi bobning ikkinchi faslida ko'rsatuv qahramoni obrazi haqida muallif tasavvurining shakllanishi bilan bog'liq omillar tadqiq etiladi.

Muallifning ko'rsatuv bosh qahramoni obrazi haqidagi qarashlarining shakllanishi individual mezonlar hamda qarama-karshiliklarga asoslanishi mumkin. Vizual obrazlar voqealar rivojiga qarab qahramonning alohida xususiyatlarini aks ettiradi, lekin aynan muallifning mulohazalari, kadr va kadr orti nutqi qahramonda nafaqat oddiy ishtirokchi, balki o'ziga xos taqdirga ega individual shaxsni ko'rishga imkon beradi.

Milliy telejurnalistika amaliyotidan kelib chiqqadigan bo'lsak, ko'rsatuv qahramonlarini, nazarimizda, quyidagi guruhlariga ajratish maqsadga muvofiq.

Birinchi guruh – «Yulduzlar» (ko'rsatuv reytingini oshiradigan shaxslar – shou-biznes vakillari, san'atkorlar, sportchilar, siyosatchilar, jamoat arboblari va h.k.).

Ikkinchi guruh – «Ekspertlar» (o'z sohasi ustalari, yetuk mutaxassislar, ma'lum masala yoki muammo bo'yicha tashkil etilgan munozarada ishtirok etish salohiyatiga ega bo'lgan shaxslar).

Uchinchi guruh – «Oddiy xalq odamlari» (xizmatchilar, ishchilar, dehqonlar, uy bekalari, oqsoqollar va h.k.).

Albatta, yuqorida keltirilgan televizion personajlar differentsiatsiyasi shartli. Chunki televideniye amaliyotida qahramonlar tiplari biz ta'kidlab o'tganidan ko'p, xususan «voqea guvohi», «voqea qurboni», «tasodifiy qahramon» (studiyadagi auditoriyadan «yarq etib» chiqqan shaxs) va boshq. Ko'rsatuv

---

<sup>13</sup>Пархоменко И. В. Герои современного телеэкрана. Кто они?// Вестник ВГУ. Серия: Филология. Журналистика. 2016. – № 6. – С. 118.

qahramonlari safiga «o'yinli dasturlar ishtirokchisi» tipini (turli televizion viktorina, ko'rik, musobaqalarda qatnashayotgan taniqli shaxslar va oddiy fuqarolarni) ham qo'shish mumkin.

Ko'rsatuv qahramoni qaysi tipiga mansub bo'lmasin, uni teledasturda namoyon bo'lishi ko'p hollarda jurnalistga bog'liq. Muallifning dunyoqarashi aynan «muallif obrazi»da mujassamlashadi. Bu hodisa barcha telemahsulotlarning tarkibiy, kompozitsion va uslubiy vositalarini yaxlit tizimga birlashtiradi. Muallif g'oyaviy-estetik maqsadlaridan kelib chiqib, teleasarda qahramonni unga yaqinlashtiradigan yoki aksincha, uzoqlashtiradigan xususiyatlarni ta'kidlashi mumkin.

Mazkur faslda zamonaviy televizion hujjatli portret holatini tahlil qilib, bu janrga tadqiqotchi M.N. Kim tomonidan ilgari surilgan portret-ocherkning umume'tirof etilgan tasnifiga mahalliy teleko'rsatuvlar amaliyotida keng qo'llanilayotgan yana ikki turini qo'shishni taklif qildik. Bu portret-ocherkning voqeaviy va tarixiy turlaridir. So'nggi yillarda amaliyotda ko'p foydalanilayotgan reportaj yo'nalishida yaratilayotgan portret-ocherkni ham asoslab berdik.

Ikkinchi bobning uchinchi faslida teleefirda qahramon obrazi: muallifning maqsadi va auditoriyaning ehtiyojlari o'rtasidagi mutanosiblik muammosi o'rganiladi. Ushbu maqsadda ijtimoiy tarmoqdagi Google akkauntida so'rovnoma o'tkazildi va unda turli soha vakillari va talabalardan iborat 322 nafar yurtdoshlarimiz ishtirok etishdi. Ulardan 40,4% – davlat muassasalari xodimlari, 24,3%i – talabalar, 24%i – tadbirkorlar, 11,4% – ishsizlardir.

Anketaga 18 ta savol joylashtirildi.

1-diagramma bo'yicha «Televideniyega qanday munosabatdasiz?», degan savolga ko'pchilik respodentlar (76%) «ijobiy» deb, javob berdilar. Demak, bugungi kunda zangori ekran o'z o'rnini to'lig'icha ijtimoiy tarmoqlarga bo'shatib bermagan va mavqyeini yo'qotmagan.

*1- diagramma.*

1. Телевидениеге қандай муносабатдасиз?  
317 ответов



2 – diagrammaga asosan 50,8% respodentlarning ekran oldida sarflaydigan vaqti 1 soatdan ko'p emasligi ma'lum bo'lgach, televizion kontent qayta ko'rib chiqilishi lozim, degan fikrga keldik.

*2- diagramma.*

2. Телемаҳсулотларни томоша қилишга бир кунда қанча вақт сарфлайсиз?  
317 ҷавоб



3 – diagramma bo'yicha «Teleekranda Sizni nima jalb qiladi?», degan savolga 44,5% ishtirokchilar taqdim etilayotgan lavha deb, 21,8% –ko'rsatuvdagi qahramonlar degan javoblarga ko'ra telejurnalistlar dasturda ishtirok etuvchi personajlar obrazi haqida chuqurroq mulohaza yuritishi maqsadga muvofiq degan xulosaga keldik.

3- diagramma.

3. Телеэкранда Сизни нима жалб қилади?  
317 ҷавоб



«Teleekranda kimni tomosha qilish Siz uchun yoqimliroq?» degan savolga ishtirokchilarning ko'p foizi, 41,6% – «Oddiy odamlarni» degan javoblariga qaraganda, teleijodkorlar efir kontentini yana bir bor qayta ko'rib chiqishi lozim.

4 - diagramma.


4. Телеэкранда кимни томоша қилиш сиз учун ёқимлироқ?  
317 ҷавоб



5 – diagramma bo'yicha «Oynai jahonda ko'proq qaysi yosh guruhidagi insonlarni ko'rasiz?», degan savolga ko'p respondentlar – 33,8% – yoshiga e'tibor bermasliklarini aytishgan. Demak, auditoriya uchun qahramonlarning yoshi muhim emas, ular uchun ekran personajlar obrazining sifati qiziqtiradi.

5– diagramma.

5. Телеэкранда кўпроқ қайси ёш гуруҳидаги инсонларни кўрасиз?  
317 ҷавоб




«Televideniyaedagi dasturlarda qahramonlar tashqi ko'rinishi Siz uchun ahamiyatlimi?», degan savolga 83,2% so'rovda qashnashganlarning «ha» degan

javoblariga qo‘ra, efirga taklif qilinayotgan personajlarning o‘ziga xosligini tashqi ko‘rinishi orqali ham ta’kidlash zarur.

6 - diagramma.

6. Теледастуралар қахрамонларининг ташқи кўринишига аҳамият берасизми?  
316 ответов



7 - savolda «Tashqi ko‘rinishda nima muhim?» deb so‘ralgan va 5 xil variant ko‘rsatilgan edi. 37,3% respondent, e’tibor ko‘pchilik, «uslub» degan variantni ma’qul ko‘rishgan. Demak, har bir ekran personaji, shuningdek, ko‘rsatuv boshlovchisi ham, o‘z uslubiga ega bo‘lmog‘i lozimligi aniqlandi.

7- diagramma.

7. Агар жавобингиз "ха" бўлса, фикрингизча, теледастурлар қахрамонлари ташқи кўринишида нима муҳим?  
316 ответов



8 – diagramma. «Teledasturlar qahramonlarining o‘zini tutishiga e’tibor berasizmi?», degan savolga 84,5% ishtirokchilar, «ha» deyishganiga qaraganda, ularning bu holatiga qisman bo‘lsa ham teleloyiha ijodkorlari ma’suldir.


8. Теледастурлар қахрамонларининг ўзини тутишига эътибор берасизми?  
316 ответов



9 - diagramma bo‘yicha tabiiylikni xush ko‘ruvchilar ko‘p foizni tashkil qilganligiga ko‘ra, ko‘rsatuvlarda samimiylilik va jonlilikni oshirish kerak.

9- diagramma.

9. Агар жавобингиз "ха" бўлса, унда фикрингизча, теледастур қахрамонининг камера олдида ўзини тутишида нима муҳим?  
319 ответов



10 - diagramma bo‘yicha «Teledasturlar qahramonlari ta’sirida voqyelikka nisbatan fikringiz o‘zgaradimi?» degan savolga 75% ga yaqin ijobiy javob berilgan. Demak, ko‘rsatuv personajlari sog‘lom fikrlovchi bo‘lishlari shart.



Shuningdek, televizion obrazlar xususida auditoriya fikrini bilish maqsadida yana qo'shimcha 7 ta savol berilgan. So'rovnomamiz tomoshabinlarga oddiy odamlar ishtirokidagi ko'rsatuvlar ayni vaqtda yetarli emasligi haqidagi fikrimizni tasdiqladi.

So'rovnomamiz asosida quyidagi xulolasalarga kelindi: voqelik va unda sodir bo'layotgan o'zgarishlar tomoshabinlar tomonidan, birinchi navbatda, dastur qahramonlarining obrazi orqali qabul qilinadi.

Zamonaviy telejurnalistika, asosan, «mashhur nomlar», ijtimoiy mavqega ega shaxslarga qaratilgan. Shu bilan birga, uning vazifasi taniqli shaxslarni tantanali va yuzaki portretlarini yaratish emas, balki jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlarga mansub bo'lgan zamonaviy qahramonlar obrazlari galereyasi orqali jamiyatni ma'naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalash ekanligini e'tibordan chetda qoldirmoqda.

Televideniya qahramonlar obrazi hamisha ham yakka shaxs bo'lmasligi, balki ma'lum ijtimoiy qatlamga mansub bo'lishi ham aniqlandi. Muallifning maqsadi auditoriya ehtiyojiga mos kelishini inobatga olish har bir jurnalist uchun muhim.

Dissertatsiya ishining «**Teleko'rsatuvda personaj obrazini taqdim etishning ijodiy usullari**», deb nomlangan uchinchi bobida ko'rsatuvlarda portret personaj xarakterini aks ettirishi, teleloyihalarda qahramon obrazini yaratishning ifodali vositalari, televizion efirda qahramon personifikatsiyasining til usullari o'rganildi.

Uchinchi bobning birinchi faslida teledasturlarda portret personaj xarakterining timsoli ekanligi tadqiq etilgan va «portret», «zamondosh portreti» tushunchalariga oydinlik kiritildi.

Tadqiqotda portretni personaj xarakterining timsoli sifatida bir necha ko'rinishda ko'rib chiqdik: *-Hujjatli yoki xotira portreti;* - *Portret-intervyu;* - *Portret-ocherk;* - *Portret-reportaj.*

Ishda televizion hujjatli portretning xususiyatlarini aniqlash maqsadida u hujjatli film bilan solishtirildi. Hujjatli film real hayotiy personajga asoslangan bo'lib, televizion ekrandagi hujjatli-portret bilan o'xshash tomonlari bor. Farqli tomonlari, film uzoq muddatda yaratiladi va xronometraji tayyor bo'lgach aniqlanadi. Televizion hujjatli portret esa shakl deyarli aniq, daqiqalar ham hisoblangan bo'ladi. Hujjatli filmda voqealar zanjiri ketma-ketlikda qurilmaydi. Televideniya qahramonlar obrazi yaratuvchilari auditoriyani avvaldan tasavvur qiladilar va ommaboplik uchun harakatda bo'ladilar.

Bugungi voqeaband portret–ocherklar, ko‘p hollarda, reportaj uslubida tayyorlanmoqda. Ya‘ni ular personajni voqea joyida voqea sodir bo‘layotgan vaqtda, «mavjudlik effekti»ni vujudga keltirgan holda qo‘shimcha ranglar va bo‘rttirishlarsiz aslicha tasvirga olish, fikrlarini iloji boricha real holatda tomoshabinga taqdim etmoqda.

Uchinchi bobning ikkinchi faslida ko‘rsatuvda qahramon obrazi yaratishning ifodali vositalari tadqiq etiladi.

Teleekranda qahramon obrazini yaratish uchun televideniyeining o‘ziga xos ekspressiv vositalari bo‘lmish kadr, plan, rakurs muhim ahamiyatga ega. Kadr kompozitsiyasi – kadr elementlarining to‘plami va ularning o‘zaro uyg‘unligida nafaqat dastur qahramonini taqdim etish, balki uni baholash imkonini ham beradi.

